



INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA O’QUVCHILAR O’RTASIDA BAG’RIKENGLIKNI TARBIYALASH VOSITALARI

Muallif: Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi ¹

Affiliatsiya: Xalqaro Nordik universiteti tayanch doktoranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17377118>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida o’quvchilar o’rtasida bag’rikenglikni shakllantirishda pedagogning o’rni, bag’rikenglikni tarbiyalashning ahamiyati va vositalari yoritilgan. Sinfdagi pedagogik muhit, o’qituvchining shaxsiy yondoshuvi, hamkorlikdagi o’yinlar, loyihalar, suhbat, bahs-munozaralar hamda ijtimoiy-pedagogik tadbirlarning samarali vosita bo’lishi ko’rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: inklyuziv ta’lim, bag’rikenglik, “o’zaro yordam”, “yaxshi so’zlar”, vosita, jamoa, bahs-munozara, xulq-atvor.

KIRISH

Inklyuziv ta’lim bugungi kunda dunyo miqyosida ta’lim hisoblanadi. Mamlakatimiz ta’lim tizimida ham alohida ehtiyojlari bo’lgan bolalar va o’smirlar ta’limini davr talabi darajasida samarali takomillashtirishga davlatimiz tomonidan katta e’tibor berilib kelinmoqda. Inklyuziv ta’limni joriy qilish va samarali yo’lga qo’yish masalalari ko’plab huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan belgilab qo’yilgan.

Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi – barcha bolalarga, ularning individual xususiyatlari, salohiyati va imkoniyatlaridan qat’iy nazar, teng sharoitlarda ta’lim olish imkoniyatini yaratishdir. Bunday muhitda turli qobiliyat, harakter va ehtiyojlarga ega o’quvchilar birgalikda ta’lim olganligi sababli, ular o’rtasida o’zaro hurmat, do’stlik va bag’rikenglikni tarbiyalash zarurdir. Bag’rikenglik – bu insonning boshqalarning fikri qadriyatlari, urf-odati, dini va imkoniyatlarini hurmat qilish, turlicha bo’lishiga qaramay birgalikda yashash madaniyatidir.

Jamiyatda, xususan, ta’limda inklyuzivlikni rivojlantirishning dolzarb masalalardan biri bo’lgan o’quvchilarda empatiya, birdamlik, hamjihatlik kabi ijobiy sifatlarni rivojlantirish ularda bag’rikenglikni tarbiyalash orqali amalga oshadi. Inklyuziv ta’limda bag’rikenglikni shakllantirish nafaqat alohida ehtiyojlari bo’lgan bolalarning ijtimoiylashuvi uchun, balki barcha o’quvchilarning shaxsiy kamoloti uchun ham muhim ahaliyat kasb etadi.

ASOSIY QISM (METODOLOGIYA, TAHLILLAR, NATIJALAR)

Bag’rikenglik – jamiyatda totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim qadriyatdir. Shu sababli inklyuziv sinflarda o’quvchilarni o’zaro hurmat, do’stona munosabat, birdamlik va hamkorlikka o’rgatish ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanadi.

Ta’lim jarayonida imkoniyatlari va qobiliyatlaridan qat’iy nazar barcha o’quvchilarga teng ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash, ya’ni, qo’shish tamoyili –

o'quvchilar kelajakda shaxsan, o'z qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda rivojlanishga va ijtimoiy hayotga to'la integratsiya qilish uchun barcha o'quvchilarning ta'lim imkoniyatlarini ularga shaxsiy salohiyatini rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish yo'li bilan kengaytirishga qaratilgan ta'lim jarayoniga yondoshuv. Bu har bir o'quvchining ta'lim jarayonining teng huquqli ishtirokchisi sifatida ehtiyojlari va imkoniyatlariga ta'lim talablari, o'qitish sharoitlari va ta'limni tashkil etishni moslashtirishga qaratilgan tizimli, ko'p qirrali va turli yo'nalishli yondoshuv hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi faoliyatida kasb standartini qo'llash kitobida inklyuziv sinflarda bag'rikenglikni tarbiyalashning uch guruh vositalari bayon qilinadi. Birinchi guruh vositalari sinfda o'quvchilarning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq hisoblanib, unga: "Estafeta", "O'zaro yordam", "Eng yaxshisiga urg'u", "Streotiplarni buzish", "O'zim haqimda tarix", "Qoidalar bo'yicha muloqot qilish", "Umumiy fikr", "Nuqtai nazarlarni korreksiyalash", "Adolatli taqsimlash", "Rol almashinuvi" kabi bir qancha uslublar yoritib berilgan.

Yuqoridagi uslublardan birinasiga to'xtalib o'tsak. Misol uchun "O'zim haqimda tarix" usulidan foydalanish inklyuziv jarayondagi sog'lom hamda alohida ehtiyojli o'quvchilarning bir-birlarini yaxshi bilib olishiga, tez til topishishiga yordam beradi. Bunda eng avvalo o'qituvchining vazifasi o'quvchilarga maxsus yordamga, ta'lim-tarbiyaga muhtojlik, batamom tuzalib ketmaslik yoki sog'ayish uchun yillar kerak bo'ladigan holat ekanligini to'g'ri tushuntirib berishi lozim. Maxsus tarbiyaga muhtojlikning ko'rish, eshitish, ruhiy va boshqa jarayonlarning zaifligi kabi oddiy tushuncha ekanligini o'quvchilar ongiga singdirishi muhimdir.

Shu bilan birgalikda o'qituvchi alohida ehtiyojlari bo'lgan o'quvchidan o'z hayoti haqida gapirib berishni iltimos qilishi mumkin, bu bolalarda katta taassurot qoldiradi. O'z hayoti davomida kechirgan qiyinchiliklar, muammolar, atrofdagilarning munosabatlari, nima sababdan kamsitishlarga uchraganligi va xokazolar. Bu o'quvchilarga o'z xatti-harakatlarini nazorat qilishga, o'zlarini tahlil qilishga yordam beradi. Hattoki, juda kichik bolalar ham bunday hikoyalarga qiziqadilar, chunki ularda haqiqat hissi jo'sh urgan bo'ladi. Alohida ehtiyojli bolalar boshqalar uning jahlini chiqargan, u bilan salbiy munosabatda bo'lgan holatlarda o'zlarini qanday his qilganliklarni aytib berganlarida, ularni samimiylik, hamdardlik hislari bilan quvvatlab turish kerak. Barcha alohida ehtiyojli o'quvchilar sinfda o'zlarini erkin sezishlari va bimalol gaplashishlari kerak. Pedagog so'zga chiqqan alohida ehtiyojli o'quvchilarning yoki sinfdagi istalgan alohida ehtiyojli bolaning erishgan yutuqlari va qobiliyatlarini qayd etib o'tishi mumkin.

O'quvchilar o'rtasida bag'rikenglikni rivojlantirishning ikkinchi guruh vositalari dialogli refleksiyaning tashkil etish bilan bog'liq bo'lib, mazkur guruhda "Rol niqobi", "Qarama-qarshiliklarni fosh qilish", "Qarshi savollar" uslublariga tavsif berilgan. Dialogli refleksiya - bu pedagog va bola o'rtasidagi muloqot bo'lib, u har qanday muhim muammoga, tegishi xatti-harakatlarda namoyon bo'ladigan masalaga o'quvchining munosabatini shakllantirishga yordam beradi.

Uchinchi guruh esa badiiy adabiyot, kinofilmlar va boshqalaradan foydalanish bilan bog'liq, bu o'z ichiga "Hikoyaning oxirini yozing", "O'rtoqning sevimli kitoblari", "Yaxshi so'zlar", "Ma'lum mavzu bo'yicha ijodkorlik", "Kinostudiya" kabi bir qancha uslublarni qamrab oladi.

Bag'rikenglikni tarbiyalashda foydalaniladigan yana bir usul - "Yaxshi so'zlar". Bunda sinfdagi o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lamiz. Guruhlarga alohida ehtiyojli insonlar, maxsus yordamga muhtojlik, nogironlik haqida eshitgan barcha so'zlarini

aytishini so'raymiz. Ushbu so'zlarni oq qog'ozga yoki doskaga yozamiz. Endi sinfdan yoki guruhdan salbiy deb disoblangan so'zlarni ajratishni so'raymiz. Bolalar bilan o'zlarini mana shu so'zlar bilan atashganda qanday his qilishlarini ular bilan birgalikda muhokama qilamiz. O'yin yakunida esa salbiy so'zlarning barchasini ijobiy so'zlarga aylantiramiz.

"O'rtoqning sevimli kitoblari" usuli ham alohida ehtiyojli bolani o'rtoqlari jamoasida o'z o'rnini topishga yordam beruvchi yana bir muhim o'yin turlaridan desak bo'ladi. Bunda o'quvchilar o'z o'rtoqlarining sevimli kitobi, fikm, qo'shiq va hokazolarini topishi lozim bo'ladi. Bu juda qiziqarli mashg'ulot ko'rinishida o'tib, bolalarning bir-birlariga nisbatan samimiy munosabatlarni uyg'otadi.

X.Jaskuin: "Mehrğa bo'lan ehtiyoj qancha bo'lishidan qat'iy nazar, uning miqdori hisob-kitob qilinmaydi. Kam miqdorda bo'lsa ham mehr berilmagan bola o'z qobig'iga berkinib oladi, yo'ldan adashadi va xudbinga aylanib qoladi. Bola toza havoga qanchalik muhtoj bo'lsa, mehrga ham shunchalik muhtojdir" – deydi. Inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvchilar o'rtasida turli vositalar orqali mana shu mehr tuyg'usini shakllantirish lozim.

"Hikoyaning oxirini yozing" usulidan ham dars mashg'ulotlarida keng foydalanish mumkin. Bolalarga turli vaziyatlar, hikoyalar o'qib eshittirilib, ularni oxiriga yetqizib berishlari so'raladi. Adabiy asar qahramonlari bo'lgan odamlar yoki hayvonlar o'rtasidagi munoabatlar muammosi bo'yicha o'z xulosalarini, mulohazalarini chiqarishi kerak bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, alohida ehtiyojli bolalarni sog'lom bolalar bilan ommaviy guruhlariga integrasiya qilish, sog'lom bolalarning xulq-atvoriga, insoniy fazilatlarining boyishiga, hamdardlik, boshqalar bilan baham ko'rish, mehribonlik xislatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarni sayr, mashg'ulotlar davomida va turli tadbirlar jarayonida kuzatish natijasida bunga yaqqol amin bo'lish mumkin. Sog'lom bolalar alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarga kiyinishlarida, oyoq kiyimlarini kiyishda, yurishda chin dildan o'z xohishlari bilan yordam berdilar. Sog'lom va alohida ehtiyojlarga ega bolalar birgalikda kitobdagi rasmlarni tomosha qildilar, chizishni, sanashni o'rgandilar, tabiiy materiallardan turli xil narsalarni yasashni o'rgandilar. Bunday jarayonda sog'lom bolalarda ham o'zgalarga yaxshilik qilish, mehr-muxabbat, o'zgalar qayg'usiga sherik bo'lish kabi xislatlar tarbiyalanadi. Alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar esa o'z nuqsonlarini unutadilar muloqotga kirishuvchanliklari, atrof olamiga bo'lgan qiziqishlari oshib boradi, o'z-o'ziga ishonch hislari shakllanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lak, inklyuziv ta'lim sharoitida o'quvcilar o'rtasida bag'rikenglikni tarbiyalash – zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biridir. Bag'rikenglik o'quvchilarda nafaqat bilim olish jarayonida, balki ijtimoiy hayotda ham hamjihatlik, o'zaro hurmat, birdamlik kabi ijobiy sifatlarni shakllantiradi. Ta'lim jarayonida pedagogik, ta'limiy, ma'naviy, ijtimoiy, hamda axborot vositalaridan samarali foydalanish orqali har bir o'quvchining qadri tan olinadi va sog'lom ijtimoiy muhit yaratiladi. Shu jihatdan qaraganda, bag'rikenglikni tarbiyalash - inklyuziv ta'limining muvaffaqiyatli garovi bo'lib, u kelajak jamiyatida totuvlik va barqarorlikni ta'minlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvar.PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841077>.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi faoliyatida kasb standartini qo'llash. Uslubiy qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Toshkent – 2022.
3. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova, " Inklyuziv ta'lim: nazariya va metodika". Darslik. Chirchiq 2022.
4. "Inklyuziv ta'limdan inklyuziv jamiyat sari: strategiyalar, tajribalar va zamonaviy texnologiyalar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani to'plami. 2024-yil 17-may.
5. "Inklyuziv ta'lim" darslik. I.Y.Madatov. Darslik. Toshkent – "BEST-PUBLISH" – 2024.
6. "Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi". A.J.Atajonova, Sh.A.Raximova va boshq. Darslik. "BOOKMANY PRINT". Toshkent – 2024.
7. P.M.Po'latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjanova va boshq., "Maxsus pedagogika". Darslik. - :T. "Fan va texnologiya" – 2014.
8. Yo'ldoshev J., Po'latov Sh., "Ta'limda metodik xizmatni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish". - T."Zamonaviy ta'lim" 2011-y.
9. P.M.Po'latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjanova va boshq., "Maxsus pedagogika". Darslik. - :T. "Fan va texnologiya" – 2014.
10. R.Shomahmudova, "Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari", O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent – 2007.
11. L.R.Mo'minova, Sh. M.Amirsaidova, Z.N.Mamarajabova, D.B.Yakubjanova va boshqalar. "Maxsus psixologiya". O'quv qo'llanma. Toshkent-2013.
12. Booth T., Ainscow M. Index for Inclusion:Developing Learning and Participation in Schools. – Bristol:CSIE, 2011.